



“Orient Finans” XATBda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun maxsus karta  
hisobvarag‘ini ochish va bank kartalariga xizmat ko‘rsatish shartlariga  
QO‘SHILISH ShARTNOMASI  
(2025 yil 06 yanvar sanasidan kuchga kiradi)

“Orient Finans” XATB Boshqaruvining 2024 yil “19” dekabr sanasidagi  
148-sonli bayonnomasi asosida  
TASDIQLANGAN



## MUNDARIJA

1. Shartnoma predmeti.....	3
2. Ta'riflar.....	3
3. Umumiyl qoidalar .....	4
4. Bank majburiyatları .....	6
5. Yakka tartibdagı tadbirkorning majburiyatları.....	7
6. Bankning huquqlari.....	7
7. Yakka tartibdagı tadbirkorning huquqlari.....	9
8. Hisob-kitoblarni o'tkazish sharti .....	9
9. Tomonlarning javobgarligi .....	10
10. YTTMKHR bo'yicha komplayens choralari .....	11
11. Korruptsiyaga qarshi shartlar.....	12
12. Ma'lumotlarning maxfiyligi .....	12
13. Fors-major.....	12
14. Nizolarni hal etish.....	13
15. Shartnomaning amal qilish muddatlari, uni o'zgartirish va bekor qilish tartibi.....	13
16. Yakunlovchi qoidalar .....	14
1-sonli ilova.....	15
2-sonli ilova.....	23
3-sonli ilova.....	25
4-sonli ilova.....	26



## "Orient Finans" XATBda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun maxsus karta hisobvarag'ini ochish va bank kartalariga xizmat ko'rsatish shartlariga QO'SHILISH ShARTNOMASI

Bir tomondan "Orient Finans" XATB (bundan keyin - Bank) va ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani qabul qilishga rozilik bildirgan YAKKA tartibdagi tadbirkor (bundan keyin - Yakka tartibdagi tadbirkor/YTT), "Orient Finans" XATBda Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun maxsus karta hisobvarag'ini ochish va bank kartalariga xizmat ko'rsatish shartlariga qo'shilish shartnomasiga (bundan keyin matnda - Shartnomma) Shartnomaga qo'shilish to'g'risidagi arizani imzolash orqali quyidagilar haqida kelishib oldilar:

### 1. ShARTNOMA PREDMETI

- 1.1. Ushbu shartnoma Bank va Yakka tartibdagi tadbirkor o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, Bank tomonidan chiqarilgan Yakka tartibdagi tadbirkorning bank kartasidan (bundan keyin matnda "Karta" deb yuritiladi) foydalangan holda o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish bo'yicha tartibga soladi.
- 1.2. Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 360-moddasida belgilangan tartibda, Yakka tartibdagi tadbirkorning Shartnomaga qo'shilishi shaklida tuziladi.
- 1.3. Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan Arizaning (ushbu Shartnomaning 2-ilovasi) to'ldirilishi va imzolanishi, ushbu Shartnomaning barcha shartlarini to'liq va so'zsiz qabul qilganligining tasdig'i hisoblanadi. Ariza ushbu Shartnomaning ajralmas qismi bo'lib, u bilan teng yuridik kuchga ega. Yakka tartibdagi tadbirkor Arizani imzolash paytida kiritgan, Shartnoma shartlarini o'zgartiruvchi har qanday qo'shimcha shartlar yuridik kuchga ega emas.
- 1.4. Tegishli hujjatlarni rasmiylashtirishdan oldin Yakka tartibdagi tadbirkorga Shartnoma matni bilan tanishish huquqi beriladi. Yakka tartibdagi tadbirkor Shartnomaning chop etilgan matnining bir nusxasini olish huquqiga ega.

### 2. TA'RIFLAR

- 2.1. **Karta** – xalqaro va/yoki milliy to'lov tizimining bank kartasi bo'lib, Bank tomonidan yakka tartibdagi tadbirkor uchun chiqarilgan va naqd pulsiz hisob-kitoblar uchun mo'ljallangan. Karta Bank mulki hisoblanadi va Bank tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorga vaqtinchalik foydalanish uchun beriladi.
- 2.2. **Karta egasi** – Bank mazkur Shartnoma asosida bank kartasini taqdim qilgan Yakka tartibdagi tadbirkor - qonun bilan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan va yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxs.
- 2.3. **YTTMKHR / MKHR** – Bank tomonidan Yakka tartibdagi tadbirkor uchun ochiladigan va bank kartasidan foydalangan holda naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan yakka tartibdagi tadbirkorning maxsus karta hisobvarag'i (keyingi o'rnlarda - hisobvaraq).
- 2.4. **Terminal** – to'lov tizimiga ulangan, Karta orqali operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan qurilma bo'lib, u tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlarini amalga oshirish, naqd pul mablag'larini berish, balansni tekshirish hamda Karta haqidagi boshqa ma'lumotlarni olish imkoniyatini ta'minlaydi.
- 2.5. **Korxona** – tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotish faoliyatini olib boruvchi hamda bank kartalarini to'lov vositasi sifatida qabul qiluvchi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor.
- 2.6. **PIN-kod** – Karta egasini autentifikatsiya qilish hamda kartada saqlanayotgan ma'lumotlarni uchinchi shaxslarning ruxsatsiz kirishidan himoya qilish uchun



mo'ljallangan maxfiy raqamlar kombinatsiyasidan iborat shaxsiy identifikatsiya raqami. PIN-kod Karta bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishda qo'llaniladi. PIN-kodning xavfsizligi va saqlanishi uchun Yakka tartibdagi tadbirkor mas'ul hisoblanadi.

- 2.7. Kvitantsiya** – Karta bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyani tasdiqlovchi, Terminal tomonidan elektron yoki qog'oz shaklida beriladigan hujjat. Kvitantsiyada o'tkazilgan operatsiya, to'lov sanasi va summasi haqidagi ma'lumotlar aks ettiriladi. Korxonaning vakolatli vakili imzolagan kvitantsiyalarning asl nusxalari buxgalteriya hisoboti uchun asos bo'lib xizmat qiladi hamda tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to'lovlar bilan bog'liq nizolarni hal etishda foydalanilishi mumkin. Bunda, tovarlar yoki xizmatlarni sotuvchi bilan yakka tartibdagi tadbirkor o'rtaida tegishli kelishuv tuzilishi shart.
- 2.8. Qaytarish** – tovar qaytarilganda (xizmat bekor qilinganda), tovar almashtirilganda yoki qonun hujjatlari va shartnomada nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra Korxona tashabbusi bilan amalga oshiriladigan YAKKA tartibdagi tadbirkorning karta hisobiga pul mablag'larini qaytarish jarayoni. Pul mablag'larini qaytarish to'lov amalga oshirilgan kartaning hisob raqamiga naqd pulsiz tarzda o'tkaziladi.
- 2.9. Stop-ro'yxat** – Yakka tartibdagi tadbirkorning rasmiy murojaatidan so'ng Bank tomonidan operatsiyalari taqiqlanadigan kartalar ro'yxati. Bu ro'yxatga karta yo'qolganligi yoki yaroqsiz holga kelganligi sababli kiritiladi. Kartani Stop-ro'yxatga kiritish uchun Yakka tartibdagi tadbirkor karta raqamini ko'rsatgan holda yozma ariza taqdim etadi.
- 2.10. Tarif** – Karta orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar uchun Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan Bankka to'lanadigan vositachilik haqi. Bank Tarifni o'z ixtiyori bilan belgilash huquqiga ega.
- 2.11. To'lov tizimi** – UZCARD va HUMO milliy to'lov tizimlari (MTT), shuningdek VISA, MasterCard hamda CHINA UNION PAY xalqaro to'lov tizimlari (XTT).
- 2.12. MBPM** – "Milliy Banklararo Protsessing Markazi" AJ (Milliy banklararo protsessing markazi) - bank kartalari bo'yicha to'lovlarni qayta ishlashni ta'minlovchi tashkilotdir.
- 2.13. YUPM** – "Yagona umumrespublika protsessing markazi" AJ - bank kartalari orqali amalga oshiriladigan to'lovlarni qayta ishlashni ta'minlovchi tashkilot.
- 2.14. Xalqaro plastik kartalar protsessing tizimi** – Bankning protsessing markazining dasturiy-texnik majmuasi bo'lib, u xalqaro kartalardan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish, operatsiyalar hisobini yuritish, Bank kartalaridan foydalanish shartlarini belgilash, shuningdek To'lov tizimi ishtiroychilari bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish imkonini beradi.
- 2.15. Shartnoma** – ushbu shartnoma, uning shartlariga qo'shilish to'g'risidagi ariza va barcha ilovalarni o'z ichiga olgan holda, Bank bilan yakka tartibdagi tadbirkor o'rtaida kelishuv bo'lib, u taraflarning yakka tartibdagi tadbirkor uchun hisob raqamini ochish va unga xizmat ko'rsatish, bank kartasini chiqarish va undan foydalanish masalalari bo'yicha munosabatlarini tartibga soladi, shuningdek, taraflarning huquq va majburiyatlarini belgilaydi.
- 2.16. Shartnomaga qo'shilish to'g'risidagi ariza (Ariza)** – bu Yakka tartibdagi tadbirkorning ushbu Shartnomaning barcha shartlari bilan tanishganligi va ularga rozi ekanligi hamda Bank tomonidan ko'rsatiladigan bank xizmatlaridan foydalanishni istayotganligini tasdiqlovchi hujjatdir.

### 3. UMUMIY QOIDALAR

- 3.1.** YTT kartasini olish uchun Yakka tartibdagi tadbirkor Bankda hisob raqamini ochishi va karta chiqarish uchun ariza topshirishi lozim. Bank taqdim etilgan



- hujjatlarni tekshirgach, YTTMKHR ochadi, kartani tayyorlaydi va uni 10 ish kuni ichida Yakka tartibdagi tadbirkorga topshiradi.
- 3.2.** Bank quyidagi to'lov tizimlariga tegishli plastik kartalarni chiqarish va ularga xizmat ko'rsatishni amalga oshiradi:
- UZCARD
  - HUMO
  - MasterCard Standard
  - VISA Classic
  - UnionPay Classic
- 3.3.** Yakka tartibdagi tadbirkor Kartaning yagona foydalanuvchisi hisoblanadi va uchinchi shaxs nomiga qo'shimcha karta ochishga haqli emas.
- 3.4.** Milliy valyutadagi karta tovarlar, materiallar, asbob-uskunalar xarid qilishga, tashqi tashkilotlar xizmatlariga haq to'lashga, binolarni ijara olishga, transport xarajatlariga va tadbirkorlik faoliyatini yuritish bilan bog'liq boshqa xarajatlarga to'lov qilish uchun ishlatalishi mumkin. Kartadan ish haqi va ijtimoiy to'lovlarni to'lash uchun, shuningdek naqd pul mablag'larini olish hamda chet el valyutasini sotib olish uchun foydalanish taqiqlanadi, Sharhnomada ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno.
- 3.5.** Xalqaro valyutadagi karta Yakka tartibdagi tadbirkorning xorijiy davlatlarga xizmat safari bilan bog'liq xarajatlarni to'lash uchun mo'ljallangan bo'lib, unda yashash, ovqatlanish, transport va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan boshqa zarur xarajatlar ham qamrab olinadi.
- 3.6.** Yakka tartibdagi tadbirkor Kartadan foydalanish orqali amalga oshiriladigan barcha operatsiyalarning qonuniyligini ta'minlashi shart va ularning oqibatlari uchun to'liq javobgar hisoblanadi.
- 3.7.** Yakka tartibdagi tadbirkorning MKHR hisobvarag'idagi qoldiq mablag'lariga sharhnomaning butun amal qilish muddati davomida foizlar hisoblanmaydi.
- 3.8.** Bank Kartani chiqarish, YTTMKHRni ochish va mablag'larni YTTMKHRga o'tkazish uchun to'lojni ushbu Sharhnomaning ajralmas qismi hisoblangan amaldagi Bank Tarifiga muvofiq undirib oladi. Mijoz Bankning amaldagi Tarifi bilan Bankning veb-saytida ([www.ofb.uz](http://www.ofb.uz)) yoki Bankning istalgan bo'limida tanishib chiqishi mumkin.
- 3.9.** Karta chiqarilayotganda, yakka tartibdagi tadbirkor talab qilib olinguncha bo'lgan istalgan depozit hisobvarag'idan YTTMKHRga o'tkazilishi lozim bo'lgan pul mablag'larini tranzit hisobvarag'iga (23104-raqamli) zarur summani o'tkazadi.
- 3.10.** Karta amal qilish muddati tugaganda, almashtirilganda, boshqa bankka o'tganda yoki Bankning rasmiy talabiga ko'ra Bankka qaytarilishi shart.
- 3.11.** Bank yo'qolgan yoki o'g'irlangan Kartani YAkka tartibdagi tadbirkor tomonidan Karta yo'qolganligi haqida yozma ariza berilgan kundan boshlab 20 bank ish kuni ichida almashtirib beradi.
- 3.12.** YTTMKHR xizmat ko'rsatishi debet sxemasi asosida amalga oshiriladi
- 3.13.** Ushbu sharhnomasi bo'yicha barcha hisob-kitoblar milliy va xorijiy valyutalarda amalga oshiriladi.
- 3.14.** Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, to'lov tizimlari qoidalariga, ushbu sharhnomasi shartlariga hamda Bankning boshqa ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq ravishda YTTMKHR/Kartochka xizmatini ko'rsatadi.
- 3.15.** Yakka tartibdagi tadbirkor rozilik beradi (oldindan berilgan aktsept) va Bankka shaxsiy tadbirkorning qo'shimcha farmoyishi va roziligidan, Karta/YTTMKHR orqali amalga oshirilgan barcha operatsiyalar, shu jumladan Bankning har qanday komissiya va mukofotlari, Bankka bo'lgan qarzlar, jarimlar hamda amaldagi qonunchilik, ushbu Sharhnomasi shartlari va joriy Tariflar asosidagi



- boshqa summalarni YTMMKHR hisobidagi pul mablag'laridan yechib olish uchun so'zsiz va qaytarib bo'lmaydigan huquqni taqdim etadi.
- 3.16.** Bank Yakka tartibdagi tadbirkorni Karta yordamida amalga oshirilgan har bir operatsiya haqida SMS-xabar yuborish orqali xabardor qiladi. Karta yordamida amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risida xabardor qilish uchun olinadigan vositachilik haqi miqdori va uni undirish tartibi Bank tariflari belgilanadi.
- 3.17.** Shu bilan birga, Yakka tartibdagi tadbirkor Bankka SMS-xabar orqali xabardor qilish uchun arizada mobil telefon raqamini ko'rsatishi lozim. Yakka tartibdagi tadbirkor istalgan vaqtida Bankka tegishli ariza taqdim etish orqali SMS-xabarnoma (SMS banking) xizmatini ularash, o'chirish yoki o'zgartirish huquqiga ega.
- 3.18.** Yakka tartibdagi tadbirkor o'zining mobil telefon raqamini taqdim etishdan va SMS-xabarnoma xizmatidan foydalanishdan voz kechish huquqiga ega. Bunday hollarda, Yakka tartibdagi tadbirkor Bank ish kunlarida shaxsan Bankka murojaat qilish orqali YTMMKHR bo'yicha ko'chirmalarni har kuni olish huquqiga ega bo'ladi.

#### 4. BANK MAJBURIYATLARI

- 4.1.** Bank quyidagilarni majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:
- 4.1.1.** Karta berilayotganda Foydalanuvchini Kartadan foydalanish bo'yicha yo'riqnomalar bilan tanishtirish, shu jumladan undan foydalanish shartlari va xavfsizlik choralarini, hamda Bank tariflari haqida ma'lumot berish.
- 4.1.2.** Yakka tartibdagi tadbirkorning maxsus hisobraqamidan (YTMMKHR) Karta orqali amalga oshirilgan barcha operatsiyalar summasidagi pul mablag'larini, shu jumladan Bank tariflari nazarda tutilgan bo'lsa, bunday operatsiyalarni bajarganlik uchun Bank komissiyalarini ham, yechib olish.
- 4.1.3.** Naqd pulsiz yo'l bilan kelib tushadigan pul mablag'larini YTMMKHRga o'tkazish (hisobga olish).
- 4.1.4.** Yakka tartibdagi tadbirkorning talabiga binoan, Bankning amaldagi tariflari muvofiq, to'lov asosida YTMMKHRdan ko'chirmalar taqdim etish orqali Kartadan foydalanish bilan bog'liq ma'lumotlarni berish.
- 4.1.5.** bank kartasi yo'qolanligi va (yoki) undan ruxsatsiz foydalanilganligi to'g'risida kecha-kunduz xabar berish imkoniyatini ta'minlash.
- 4.1.6.** Yakka tartibdagi tadbirkorning Karta yo'qolanligi (o'g'irlanganligi, yo'qotilganligi va hokazo) va (yoki) ruxsatsiz ishlatalganligi haqidagi arizasi/murojaati kelib tushgan paytdan boshlab, Karta bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni darhol to'xtatish/bekor qilish va Kartani bloklash.
- 4.1.7.** Yakka tartibdagi tadbirkorga amaldagi tariflarda ko'zda tutilgan Karta va hisob-kitob texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha maslahatlar berish.
- 4.1.8.** Tariflar, shuningdek, Kartalar bo'yicha xizmatlar ko'rsatish shartlari va tartibi o'zgargan taqdirda, mazkur o'zgarishlar kuchga kirishidan kamida 10 kun oldin Bankning rasmiy veb-saytida ([www.ofb.uz](http://www.ofb.uz)) ma'lumot joylashtirish orqali Yakka tartibdagi tadbirkorni xabardor qilish.
- 4.1.9.** Yakka tartibdagi tadbirkorga tegishli bo'lgan, bank sirini tashkil etuvchi barcha ma'lumotlarning maxfiyligini kafolatlash.
- 4.1.10.** Yakka tartibdagi tadbirkorni Karta xizmat haqi miqdori va uni undirish tartibi haqida, shuningdek to'lov amalga oshirilmagan taqdirda qarz hisoblanishi to'g'risida xabardor qilish, hamda ushbu Shartnomada belgilangan tartibda Yakka tartibdagi tadbirkorga uning Kartasiga xizmat ko'rsatilganligi uchun komissiya to'langanligi faktini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishni ta'minlash.
- 4.1.11.** Ushbu shartnomaga bekor qilinganda, ilgari Karta bo'yicha amalga oshirilgan barcha o'zaro hisob-kitoblar yakunlangandan so'ng, YTMMKHRdagi qolgan



pul mablag'larini Yakka tartibdagi tadbirkorning talab qilib olinadigan hisobvarag'iga qaytarish.

## 5. YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORNING MAJBURIYATLARI

- 5.1. Yakka tartibdagi tadbirkor quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:
  - 5.1.1. Kartadan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga, ushbu Shartnomaga, Kartadan foydalanish bo'yicha yo'riqnomaga, shuningdek Xalqaro to'lov tizimlari qoidalari hamda UZCARD/HUMO yo'riqnomalariga qat'iy rioya qilgan holda foydalanish.
  - 5.1.2. ushbu shartnoma shartlarini bajarishga.
  - 5.1.3. Kartadan YTMMKHR hisobidagi mablag'lar qoldig'i doirasida va uning amal qilish muddati davomida foydalanish.
  - 5.1.4. Yakka tartibdagi tadbirkorning moliyaviy va tijorat sirlari kabi PIN-kodlarni ham maxfiy saqlash.
  - 5.1.5. Bankning amaldagi tariflariga muvofiq Karta yordamida amalga oshirilgan barcha operatsiyalar uchun vositachilik haqini to'lash.
  - 5.1.6. Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan ushbu shartnoma buzilishi bilan bog'liq barcha xarajatlarni to'lash.
  - 5.1.7. Karta yo'qolgan (o'g'irlangan) va/yoki undan ruxsatsiz foydalanilgan hollarda, shuningdek PIN-kod uchinchi shaxsga ma'lum bo'lib qolgan taqdirda, kartani bloklash uchun darhol Bankka telefon orqali, jumladan Bankning Aloqa markaziga xabar berish va kartani bloklash choralarini ko'rish zarur.
  - 5.1.8. Ushbu shartnoma bekor qilinganida yoki faoliyat to'xtatilganida, Kartani Bankka ishlaydigan holatda qaytarish va YTMMKHRni yopish lozim. Kartani qaytarish imkonи bo'lмаган taqdirda, Bankning amaldagi tariflariga muvofiq komissiya to'lovi amalga oshirilishi shart.
  - 5.1.9. Yakka tartibdagi tadbirkorning 2-kartotekaga tushishi natijasida bank kartasidan yechib olingan mablag'larni qayta tiklash.
  - 5.1.10. Bankning birinchi talabiga ko'ra Kartani qaytarib berish.
  - 5.1.11. Karta chiqarish/YTMMKHR ochish to'g'risidagi arizada ko'rsatilgan ma'lumotlarga oid barcha o'zgarishlar haqida (manzil, F.I.Sh., telefon raqamlari va boshqa rekvizitlar) bunday o'zgarishlar yuz bergan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida Bankka yozma ravishda xabar berish. Ushbu bandda ko'rsatilgan ma'lumotlarni Bankka taqdim etmaslik yoki o'z vaqtida taqdim etmaslik oqibatida yuzaga kelgan barcha xatarlar Yakka tartibdagi tadbirkor zimmasiga yuklanadi.
  - 5.1.12. Yakka tartibdagi tadbirkor ushbu Shartnoma shartlari, Xalqaro to'lov tizimlari qoidalari, shuningdek Bankning [www.ofb.uz](http://www.ofb.uz) rasmiy veb-saytida joylashtirilgan UZCARD va HUMO milliy to'lov tizimlari yo'riqnomalari, jumladan ularga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar bilan muntazam ravishda, haftada kamida bir marta mustaqil tanishib borish majburiyatini oladi. Xizmat ko'rsatish shartlariga oid savollar tug'ilganda, Yakka tartibdagi tadbirkor Bankning o'zi uchun qulay bo'lган istalgan bo'limiga tushuntirishlar olish uchun murojaat qilish huquqiga ega.

## 6. BANKNING HUQUQLARI

- 6.1. Bank quyidagi huquqlarga ega:
  - 6.1.1. Shartnomaga muvofiq ochilgan Mijozning YTMMKHRidan quyidagi pul mablag'larini Mijozning farmoyishisiz (topshirig'isiz) yechib olish:
    - Karta (kartalar) va/yoki uning rekvizitlaridan foydalanib amalga oshirilgan operatsiyalar summasi.



- YTTMKHR xizmatiga bank komissiyalari (boshqa to'lovlar) va jarimalarni o'z ichiga olgan holda.
- hisob bo'yicha overdraft.
- Mijoz hisobiga xato o'tkazilgan mablag'lar.
- Bank va mijoz o'ttasida tuzilgan boshqa shartnomalar yoki boshqa pul majburiyatları, shu jumladan texnik overdraft bo'yicha mijozning Bank oldida qarzi mavjud bo'lgan taqdirda.
- 6.1.2.** Karta yordamida amalga oshiriladigan operatsiyalarga cheklovlar o'rnatish va ularni o'zgartirish. Istalgan vaqtida o'z xohishiga ko'ra Kartadan foydalanish bilan bog'liq operatsiyalar, xizmatlar va funktsiyalar to'plamini o'zgartirish.
- 6.1.3.** YTTMKHR va Karta ochish uchun ariza bergen kundan boshlab 6 (olti) kalender oydan ortiq muddat ichida Kartani olish uchun Bankka kelmagan taqdirda, Kartani bekor qilish va unga xizmat ko'rsatganlik uchun Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan to'langan haqni qaytarmaslik.
- 6.1.4.** Bank kartasiga xizmat ko'rsatish tariflarini bir tomonlama o'zgartirish huquqiga ega. Yakka tartibdagi tadbirkor yangi tariflar bilan Bankning rasmiy veb-saytidagi yoki Bankning istalgan filialida tanishib chiqishi mumkin.
- 6.1.5.** Mijozning Shartnoma doirasida amallarni bajarishni davom ettirish holati, uning Shartnomaning o'zgartirilgan Tariflari va shartlariga roziligidini tasdiqlovchi omil hisoblanadi.
- 6.1.6.** Nazoratni amalga oshirish maqsadida operatsiyalarning o'tkazilishi bilan bog'liq hujjatlarni talab qilish.
- 6.1.7.** Mijoz tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida axborot SMS-xabarlarini yuborish.
- 6.1.8.** Ishlab chiqarish zaruriyati tufayli Kartani ko'rsatishni talab qilish va Yakka tartibdagi tadbirkorni Kartani olib qo'yishdan kamida 3 (uch) kun oldin xabardor qilgan holda, undan Kartani olib qo'yish huquqiga ega bo'lish.
- 6.1.9.** Xavfsizlik maqsadida Kartani vaqtincha bloklash.
- 6.1.10.** Xalqaro kartalardan-Kartaga naqd pul mablag'larini yechib olishda kunlik va/yoki oylik limitlarning eng yuqori miqdorini mustaqil ravishda belgilash.
- 6.1.11.** Yakka tartibdagi tadbirkordan barcha qarz summalarini va ushbu shartnomani buzganligi sababli yuzaga kelgan xarajatlarni to'lashni talab qilish huquqiga ega bo'lish.
- 6.1.12.** Yakka tartibdagi tadbirkordan olingen xabarnoma yoki ariza asosida yoxud o'z tashabbusi bilan, ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan Kartadan foydalanish tartibi buzilgan taqdirda, Kartadan foydalanishni to'xtatib turish yoki butunlay to'xtatish huquqiga ega bo'lish.
- 6.1.13.** Amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan holatlarda Karta yordamida amalga oshiriladigan operatsiyalarni to'xtatish yoki cheklash.
- 6.1.14.** Bank quyidagi hollarda bank kartasi bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yishga va uni muomaladan chiqarib olishga haqli:
  - Bank kartasidan yoki uning rekvizitlaridan noqonuniy foydalanilganligini tasdiqlovchi holatlar mavjud bo'lsa.
  - Firibgarlik yoki kartadan ruxsatsiz foydalanish alomatlari mavjud bo'lganda.
  - Karta foydalanuvchi bo'lmagan shaxs tomonidan ishlatalganligi aniqlangan holatlarda.
  - Karta egasi shartnoma shartlarini buzgan taqdirda, jumladan bank xizmatlariga to'lov majburiyatlarini bajarmaganda.
  - Karta bilan bog'liq operatsiyalar xavfsizligiga tahdid soluvchi texnik muammolar yuzaga kelganda.
  - Karta yo'qolgan yoki o'g'irlab ketilgan holatlarda.



- Bank kartalaridan foydalanish to'g'risidagi shartnomalarda nazarda tutilgan boshqa hollarda.
  - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi va shartnomada ko'zda tutilgan boshqa hollarda.
- 6.1.15.** Bank, mijoz tomonidan bir kunning o'zida bir bank kartasidan boshqasiga 5 tadan ortiq tranzaksiya amalga oshirgan hollarda, agar operatsiya summasi O'zbekiston Respublikasining bazaviy hisoblash miqdorining 500 baravariga teng yoki undan oshsa, shartnomaga muvofiq karta bo'yicha operatsiyalarni bir tomonlama tartibda uch ish kuniga to'xtatib qo'yish huquqiga ega.

## 7. YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORNING HUQUQLARI

- 7.1.** Yakka tartibdagi tadbirkor quyidagi huquqlarga ega:
- 7.1.1.** O'zining istalgan talab qilib olinguncha hisobidan mablag'larni o'tkazish orqali YTTMKHRni to'ldirish.
- 7.1.2.** Kartada amalga oshirilgan barcha operatsiyalar, shu jumladan hisobvaraqtin joriy balansi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ko'chirmani pullik asosda olish. Ko'chirma taqdim etish narxi va tartibi Bankning amaldagi tariflariga muvofiq belgilanadi.
- 7.1.3.** Kartani organidan so'ng istalgan vaqtida xavfsizlikni oshirish maqsadida Bankning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish qurilmalari (bankomatlar, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish terminallari) yordamida Karta PIN-kodini o'zgartirish mumkin.
- 7.1.4.** YTTMKHR ko'chirmasiga rozi bo'limgan va/yoki amalga oshirilgan operatsiyalar yuzasidan nizoli masalalar yuzaga kelgan taqdirda, belgilangan tartibda yozma e'tirozlar taqdim etish.
- 7.1.5.** Karta yo'qolgan (o'g'irlangan) yoki uning amal qilish muddati tugagan hollarda, amaldagi Kartani qayta chiqarish uchun Bankka tegishli ariza bilan murojaat qilish.
- 7.1.6.** istalgan vaqtida Bankka Kartaning amal qilishini to'xtatish (bloklash) yoki ushbu Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish to'g'risida yozma ariza topshirish. Ushbu huquq Bank oldida qarzdorlik mavjud bo'lgan hollarda, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi ko'rsatilgan holatlarda amal qilmaydi.
- 7.2.** Yakka tartibdagi tadbirkor Bank Korxonalardan amalga oshirilgan operatsiyalar haqidagi ma'lumotlarni olmaguncha, Bankdan summalarini qaytarishni talab qilishga haqli emas.

## 8. HISOB-KITOBLARNI O'TKAZISH ShARTI

- 8.1.** Bank yakka tartibdagi tadbirkordan Bankning amaldagi tariflari asosida, yakka tartibdagi tadbirkorning tegishli maxsus karta hisobraqami valyutasida vositachilik haqini undirib oladi.
- 8.2.** YTTMKHRga mablag'lar kiritilganligi uchun vositachilik haqi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga muvofiq 23104-tonli tranzit hisob raqamidan Bankka tegishli bo'lgan miqdorda memorial order bilan Mijozning farmoyishisiz Bank tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.
- 8.3.** YTTMKHR ochish uchun vositachilik haqi 45265-tonli hisobvaraqa alohida to'lov topshiriqnomasi bilan birga o'tkaziladi.
- 8.4.** Mijozning YTTMKHR hisobi milliy valyuta (O'zbekiston so'mi) va/yoki AQSh dollari (USD) valyutasida yuritilishi mumkin.
- 8.5.** YTTMKHR to'ldirish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi muvofiq naqd pulsiz to'lov orqali amalga oshiriladi.
- 8.6.** Mijoz Bankda ochilgan 23104-raqamli hisobvarag'iga YTTMKHRga o'tkazilishi lozim bo'lgan pul mablag'larini o'tkazadi.



- 8.7. Mijoz bank tariflariga muvofiq komissiya to'lovini alohida to'lov topshiriqnomasi orqali amalga oshiradi.
- 8.8. Xalqaro karta bilan amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha, mijoz tomonidan bajarilgan operatsiyalar valyutasi "Orient Finans" XATB va Xalqaro to'lov tizimi tomonidan o'rnatilgan kurs asosida YTTMKHR valyutasiga konvertatsiya qilinadi. Mazkur kurs operatsiya amalga oshirilgan kunda yoki tranzaksiyaning moliyaviy tasdig'i kelib tushgan kunda amal qilayotgan kursga muvofiq bo'ladi.
- 8.9. Bank mukofoti YTTMKHR valyutasida, Bank Tarifida belgilangan stavkalar bo'yicha undiriladi.
- 8.10. Agar Tarifda boshqacha tartib to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilmagan bo'lsa, Hisobvaraqdagi pul mablag'larining kunlik qoldig'iga foizlar hisoblanmaydi.

## 9. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

- 9.1. Bank Karta yo'qolganligi, o'g'irlanganligi yoki ruxsatsiz foydalanilganligi to'g'risida Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan Bankka amalda xabar berilgan paytgacha, Kartadan ruxsatsiz foydalanish natijasida yuzaga kelgan har qanday moliyaviy yo'qotishlar uchun javobgar bo'lmaydi. Bu moliyaviy yo'qotishlarga naqd pul mablag'larini echib olish, tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish kabi holatlar kiradi, ammo bular bilan cheklanmaydi. Shuningdek, agar PIN-kod uchinchi shaxsga ma'lum bo'lsa, Bank Karta yordamida amalga oshirilgan har qanday operatsiyalar uchun javobgar bo'lmaydi. Mijoz yuqorida ko'rsatilgan voqealarning har biri to'g'risida Bankni darhol xabardor qilishi shart.
- 9.2. Bank o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra yuzaga kelgan va Yakka tartibdagi tadbirkorning Bankdan xabarlarni o'z vaqtida olmasligiga yoki umuman olmasligiga olib kelgan Internet tarmog'i, pochta, aloqa tarmoqlarining ishidagi uzilishlar uchun javobgar bo'lmaydi. Texnik nosozliklar (elektr ta'minoti va aloqa tarmoqlarining uzilishi/shikastlanishi, Bank dasturiy ta'minoti va ma'lumotlar bazasining ishdan chiqishi va boshqalar) natijasida Bank tomonidan Sharhnomada shartlari bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun Bank mulkiy javobgarlikdan ozod etiladi.
- 9.3. Bank Uzcard EMV yoki Humo to'lov tizimlarining uchinchi tomon tashkilotlar (YUPM yoki MBPM) aybi bilan yuzaga kelgan va Karta orgali operatsiyalarni amalga oshirishni imkonsiz qilgan vaqtinchalik uzilishlari uchun javobgar bo'lmaydi.
- 9.4. Bank quyidagi hollarda bank kartasidan ruxsatsiz foydalanish natijasida yo'qotilgan pul mablag'lari summasini to'lash bo'yicha javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi va bunday to'lovnini rad etadi:
  - Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan ushbu Sharhnomada ko'zda tutilgan Kartadan foydalanish xavfsizlik choralariga rioya qilmasligi.
  - Yakka tartibdagi tadbirkorning Kartadan foydalanib (g'ayriqonuniy harakatlar orqali) jinoyat sodir etishda ishtiroy etganligi faktini aniqlash.
- 9.5. Bank Karta yo'qolganligi (o'g'irlanganligi) va (yoki) Kartadan ruxsatsiz foydalanilganligi to'g'risidagi bildirishnomalar olinganidan so'ng, bank kartasidan ruxsatsiz foydalanish holatlari uchun javobgar hisoblanadi.
- 9.6. Yakka tartibdagi tadbirkor, Bank singari, sharhnomada bo'yicha ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash uchun mas'uldir.
- 9.7. Ushbu sharhnomada ko'zda tutilmagan holatlarda tomonlarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi muvofiq tartibga solinadi.
- 9.8. Yakka tartibdagi tadbirkor Bankka noto'g'ri ma'lumot taqdim etganligi uchun javobgar hisoblanadi.



- 9.9.** Yakka tartibdagi tadbirkor o'tkazilayotgan operatsiyalarning asosliligi va Mijozning qasddan yoki ehtiyoitsizligi, Kartadan foydalanish qoidalarini buzishi natijasida Karta va/yoki undagi ma'lumotlardan noqonuniy foydalanish oqibatida yuzaga kelgan barcha holatlar uchun javobgardir. Bu javobgarlik qonunga xilof operatsiyalar va ularning oqibatlari uchun ham amal qiladi.

## 10. YTTMKHR BO'YICHA KOMPLENS ChORALARI

- 10.1.** Hisob ochishda yakka tartibdagi tadbirkor Bankka quyidagilarni ma'lum qiladi va kafolatlaydi:
- 10.1.1.** Yakka tartibdagi tadbirkor shuni tan oladiki, Shartnoma bo'yicha boshqa har qanday huquqlarga qo'shimcha ravishda, Bank yakka tartibdagi tadbirkorning tranzaksiyalarini to'xtatib turish va tekshirish huquqiga ega.
- 10.1.2.** Bank amalga oshirilayotgan tranzaksiyani to'liq o'rganish maqsadida (pul mablag'larining kelib chiqish manbai, o'tkazilayotgan tranzaksiyaning qonuniyligi va asosliligi hamda boshqa masalalar bo'yicha) Yakka tartibdagi tadbirkorga so'rov yuborish huquqiga ega. O'z navbatida, Yakka tartibdagi tadbirkor Bank tomonidan so'ralgan barcha ma'lumotlar va hujjatlarni qisqa muddat ichida taqdim etish majburiyatini oladi.
- 10.1.3.** Bank yakka tartibdagi tadbirkorning amalga oshirayotgan tranzaksiyasi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga yoki iqtisodiy sanktsiyalarga oid qonun va qoidalarni buzish ehtimolini aniqlay oladi.
- 10.2.** Bank yakka tartibdagi tadbirkorning tranzaksiyasini quyidagi hollarda to'xtatib qo'yadi:
- 10.2.1.** Yakka tartibdagi tadbirkorning karta tranzaksiyasini Bank tomonidan qo'shimcha o'rganish zarurati tug'ilganda.
- 10.2.2.** agar Yakka tartibdagi tadbirkorning karta bo'yicha tranzaksiyasi xalqaro iqtisodiy va moliyaviy sanktsiyalar doirasiga tushsa.
- 10.2.3.** agar Yakka tartibdagi tadbirkorning karta bo'yicha tranzaksiyasi sanktsiyalarni chetlab o'tish maqsadida amalga oshirilayotgan bo'lsa.
- 10.2.4.** agar Bank fikriga ko'ra, tranzaksiya shuhbali bo'lsa hamda hukumat tomonidan qabul qilingan chekllovchi choralarini va xalqaro iqtisodiy-moliyaviy sanktsiyalarni chetlab o'tish belgilariiga ega bo'lsa.
- 10.3.** Bank tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorning amalga oshirayotgan tranzaksiyasi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki qoidalarni buzmasligi, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish bilan bog'liq emasligi yoki iqtisodiy sanktsiyalardan qochish urinishi ekanligiga ishonch hosil qilingan taqdirda, Bank avval qo'yilgan tranzaksiyalarni amalga oshirish chekllovlarini bekor qiladi.
- 10.4.** Bank tomonidan Yakka tartibdagi tadbirkorning bank hisobvarag'i O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini va Bankning ichki qoidalarni buzadigan, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish bilan bog'liq qonun va qoidalarni buzadigan noqonuniy operatsiyalarni amalga oshirish maqsadida ishlatalayotgani yoki ishlatalishi mumkinligi, hamda iqtisodiy sanktsiyalar ta'siriga tushganligi aniqlansa, Bank bunday operatsiyani bir tomonlama to'xtatishga va Yakka tartibdagi tadbirkorning ko'rsatilgan manziliga xabarnoma yuborib, uning hisob raqamini bloklashga haqli hisoblanadi.
- 10.5.** Hisobvaraq bloklangandan so'ng, Yakka tartibdagi tadbirkor 30 kalendar kuni ichida bankka hisobvaraqni yopish va shartnomani bekor qilish to'g'risidagi arizani taqdim etishi shart.



- 10.6.** Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan hisobvaraq ochishda taqdim etilgan manzillarga xabarnoma yuborilgan kundan boshlab 30 kalendarb kun o'tgach, yakka tartibdagi tadbirkordan hisobvaraqni yopish to'g'risidagi ariza olingan-olimmaganligidan qat'i nazar, shartnoma bekor qilingan hisoblanadi.

## **11. KORRUPTSIYAGA QARShI ShARTLAR**

- 11.1.** Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilari biron-bir noqonuniy afzallik yoki boshqa g'ayriqonuniy maqsadlarga erishish uchun hech kimning xatti-harakatlari yoki qarorlariga ta'sir o'tkazish maqsadida hech qanday pul mablag'larini yoki qimmatliklarni to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita to'lamaydilar, to'lashni taklif qilmaydilar yoki to'lashga ruxsat bermaydilar.
- 11.2.** Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish jarayonida Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilari ushbu Shartnoma maqsadlariga qo'llaniladigan qonunchilik bo'yicha pora berish/olish, tijorat poraxo'rliги sifatida tavsiflanadigan harakatlarni, shuningdek, jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish (tozalash)ga qarshi kurashish bo'yicha qo'llaniladigan qonunchilik va xalqaro hujjatlar talablarini buzuvchi harakatlarni amalga oshirmaydilar.
- 11.3.** Ushbu Shartnomaning har bir Tomoni boshqa Tomonning xodimlarini har qanday usulda rag'batlantirishdan voz kechadi, jumladan, pul mablag'lari yoki sovg'alar berish, ularning manziliga bepul ish (xizmat) bajarish va boshqa usullar orqali. Bunday rag'batlantirish xodimni ma'lum darajada qaram qilib qo'yadi va ushbu xodim tomonidan rag'batlantirayotgan Tomon foydasiga biron-bir harakatlarning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi.
- 11.4.** Tomonlardan biriga korruptsiyaga qarshi shartlarning buzilganligi yoki buzilishi mumkinligi haqida shubha paydo bo'lган taqdirda, o'sha Tomon boshqa Tomonni yozma ravishda yoki ishonch telefoni orqali og'zaki tarzda xabardor qilishi shart.
- 11.5.** Tomonlar o'zlarining ehtimoliy noqonuniy xatti-harakatlari va ushbu Shartnomaning korruptsiyaga qarshi shartlarini buzishlari shartnomaning bekor qilinishiga olib kelishi mumkinligini tan oladilar.
- 11.6.** Tomonlar ushbu shartnomaning korruptsiyaga qarshi shartlarini bajarish masalalariga doir to'liq maxfiylikni kafolatlaydilar.

## **12. MA'LUMOTLARNING MAXFIYLIGI**

- 12.1.** Bank va yakka tartibdagi tadbirkor bir-biriga taqdim etadigan shartnoma predmetiga oid ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi. Tomonlar olingan axborotning uchinchi shaxslarga oshkor etilishining oldini olish uchun barcha zarur va yetarli choralarни ko'radilar.
- 12.2.** Yakka tartibdagi tadbirkor ham, Bank ham bank sirini va ushbu shartnoma bo'yicha ma'lumotlarni saqlash uchun javobgardir.

## **13. FORS-MAJOR**

- 13.1.** Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydilar, agar bu bajarmaslik davlat boshqaruvi va nazorati organlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qabul qilingan chekllovchi-taqiqlovchi xususiyatdagi hujjatlar/choralar yoki yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasi bo'lsa. Bunday holatlarga quyidagilar kiradi: urush, zilzila, yong'in, ish tashlash yoki boshqa ofatlar (ularning aybi bilan yuzaga kelmagan, lekin majburiyatlarni bajarishga ta'sir ko'rsatadigan texnika nosozligi, dasturiy ta'minot, elektr ta'minoti va



ma'lumotlar uzatish tizimlarining ishdan chiqishi). Tomonlar bu holatlarga ta'sir ko'rsata olmaydilar va ularning yuzaga kelishi uchun javobgar emaslar. Shuningdek, agar ushbu fakt vakolatli davlat organlari tomonidan hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'lsa, javobgarlik bo'lmaydi. Tomonlar bunday yengib bo'lmaydigan kuch holatlarining boshlanishi va tugashi haqida darhol yozma ravishda xabar berishlari shart.

- 13.2.** Yengib bo'lmash kuch holatlari, qonunda belgilangan tartibda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganida, fors-major sifatida e'tirof etiladi.

#### **14. NIZOLARNI HAL ETISH**

- 14.1.** YTTMKHR ko'chirmasi bilan kelishmovchilik yuzaga kelganda yoki Karta orqali amalga oshirilgan to'lovlardan bo'yicha nizoli masalalar/bahslar paydo bo'lganda, Yakka tartibdagi tadbirkor Bankka yozma ariza/e'tiroz bilan murojaat qiladi. Arizaga asoslovchi hujjatlarning nusxalari (slip, chek, ko'chirma va boshqalar) ilova qilinishi lozim.
- 14.2.** Bank Yakka tartibdagi tadbirkorning arizasini u kelib tushgan kundan boshlab 15 (o'n besh) kun ichida ko'rib chiqadi. Arizani ko'rib chiqish uchun tekshirish o'tkazish, qo'shimcha hujjatlarni talab qilish yoki boshqa choralar ko'rish zarur bo'lgan hollarda, uni ko'rib chiqish muddati uzaytirilishi mumkin, ammo bu muddat 30 (o'ttiz) kundan oshmasligi lozim. Bunday holda, Bank YAkka tartibdagi tadbirkorga bu haqda albatta xabar beradi.
- 14.3.** Ushbu Sharhnomani bajarish jarayonida yuzaga keladigan barcha nizolar tomonlar o'rtasida o'zaro maqbul yechim topish maqsadida muzokaralar yo'li bilan ko'rib chiqiladi. Agar tomonlar o'zaro kelishuvga erisha olmasa, nizo ko'rib chiqish uchun Bankning xizmat ko'rsatuvchi hududiy bo'linmasi joylashgan joydagи vakolatli sudga topshiriladi.

#### **15. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATLARI, UNI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI**

- 15.1.** Ushbu sharhnomani tomonlar imzolagan kundan e'tiboran kuchga kiradi va Tomonlardan birining tashabbusi bilan bekor qilinguniga qadar amal qiladi.
- 15.2.** Sharhnomani yakka tartibdagi tadbirkorning tashabbusi bilan bekor qilinishi mumkin, bunda sharhnomani bekor qilish mo'ljallangan sanadan 10 kun oldin Bankka yozma ravishda xabar berish sharti bilan, quyidagi holatda:
- Bank tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorga berilgan karta Bankka ishchi holatda qaytarildi (kartaning ishchi holati deganda ko'rinarli shikastlari bo'lmagan va bloklanmagan karta tushuniladi).
  - Yakka tartibdagi tadbirkorning bankda ochilgan hisobvarag'iga vakolatli davlat organlari tomonidan taqiq qo'yilmagan.
  - Yakka tartibdagi tadbirkor mazkur Sharhnomani bo'yicha Bank oldidagi barcha majburiyatlarini to'liq bajargan.
  - Yakka tartibdagi tadbirkor Bankka nisbatan qarz majburiyatlariga ega emas.
- 15.3.** Sharhnomanining barcha shartlari va qo'shimchalari uning ajralmas qismi hisoblanadi va bajarilishi shart.
- 15.4.** Yakka tartibdagi tadbirkor e'lon qilingan axborot bilan tanishgan payt, mazkur axborot Yakka tartibdagi tadbirkor uchun mavjud bo'lgan vaqt hisoblanadi.
- 15.5.** Sharhnomaga o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar kuchga kirgunga qadar qo'shilgan barcha shaxslarning kafolatlangan tarzda tanishib chiqishini ta'minlash maqsadida, yakka tartibdagi tadbirkor bir kalendarъ haftada kamida bir marta mustaqil ravishda Bankka murojaat qilishi yoki Sharhnomani va/yoki Tariflarga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida ma'lumot olish uchun Bankning [www.ofb.uz](http://www.ofb.uz) rasmiy veb-saytiga tashrif buyurishi shart. Bu



shaxsiy tadbirkorning majburiyatidir.

- 15.6.** Ushbu Shartnoma va/yoki Tariflarga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, ular kuchga kirishidan kamida 10 kalendarъ kun oldin, Bankning [www.ofb.uz](http://www.ofb.uz) rasmiy veb-saytida joylashtiriladi. Yakka tartibdagi tadbirkor mazkur o'zgartirish va qo'shimchalar bilan mustaqil ravishda tanishib chiqishi shart.
- 15.7.** Kiritilgan o'zgartirishlarga rozi bo'limgan taqdirda, Yakka tartibdagi tadbirkor o'zgartirishlar Bank veb-saytiga joylashtirilgan kundan boshlab 10 kalendarъ kun ichida Bankka Shartnomani bekor qilish to'g'risidagi yozma xabarnomani taqdim etishga haqlidir. Bunday xabarnoma taqdim etilmagan holda, o'zgartirishlar Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan qabul qilingan deb hisoblanadi.
- 15.8.** Yakka tartibdagi tadbirkor shuni tasdiqlaydiki, shartnomaga qo'shilish to'g'risidagi ariza O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 361-moddasiga muvofiq "dastlabki rozilik" sifatida Bank tomonidan Shartnoma/Tariflarga keyinchalik kiritilgan barcha o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalarga (shu jumladan, Bank tomonidan Shartnomaning yangi tahriri tasdiqlangan hollarga ham) tatbiq etiladi.
- 15.9.** Ushbu Shartnoma bekor qilingan taqdirda, Yakka tartibdagi tadbirkorga quyidagilar qaytarilmaydi: Kartani chiqarish uchun to'lov, operatsiyalarni qayta ishlash uchun olingan vositachilik haqi, shuningdek Bank tariflarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlar.

## 16. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

- 16.1.** Tomonlar ushbu Shartnomaning barcha shartlari (tomonlarning huquq va majburiyatları, vositachilik haqini to'lash miqdori va tartibi hamda boshqalar) o'zaro kelishilganligini va ularning huquq hamda manfaatlari zarar yetkazmasligini tasdiqladilar. Yakka tartibdagi tadbirkor ushbu Shartnoma bo'yicha vositachilik haqlari va boshqa to'lovlar bilan tanishgan va ularga rozi bo'lgan holda, Shartnoman ni ixtiyoriy ravishda va ongli tarzda imzolagan. Shuningdek, ushbu Shartnomaning huquqiy oqibatlari unga ma'lum va tushunarli ekanligini tasdiqlaydi.
- 16.2.** Agar ushbu Shartnomaning bir yoki bir nechta qoidasi (sharti) qonun yoki sud qarori asosida haqiqiy emas deb topilsa, bu holat Shartnomaning boshqa qoidalari (shartlari) amal qilishini to'xtatish uchun asos bo'la olmaydi.
- 16.3.** Tomonlar Shartnoma matni bilan tanishib chiqqanlar, uning mazmuni aniq, matni tushunarli, bayon etilgan tiliga nisbatan e'tirozlari yo'q, buni ularning imzolari tasdiqlaydi.
- 16.4.** Ushbu shartnoma bilan tartibga solinmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal qilinadi.
- 16.5.** Shartnomaning barcha ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi.
- 16.6.** Shartnomaning quyida keltirilgan ilovalari namunaviy shakllar hisoblanib, ushbu shartnomada ko'zda tutilgan holatlar yuz berganda rasmiylashtiriladi:
- 16.6.1.** 1-sonli llova - Milliy to'lov tizimlarida yakka tartibdagi tadbirkorining bank kartasidan foydalanish yo'rqnomasni (Shartlar va xavfsizlik choralar);  
Xalqaro kartadan foydalanish qoidalari.
- 16.6.2.** 2-sonli llova – Bank kartasini chiqarish, qayta chiqarish yoki yopish uchun ariza.
- 16.6.3.** 3-sonli llova – Bank kartasini bloklash uchun ariza.
- 16.6.4.** 4-sonli llova – Bank kartasini blokdan chiqarish uchun ariza



"Orient Finans" XATBda yakka tartibdag tadbirkorlar uchun  
maxsus karta hisobvarag'ini ochish va bank kartalariga xizmat  
ko'rsatish sharlariga qo'shilish shartnomasiga  
1-sonli ilova.

## Milliy to'lov tizimlarida yakka tartibdag tadbirkorining bank kartasidan foydalanish yo'riqnomasi (Shartlar va xavfsizlik choralar)

### 1. YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORNING BANK KARTASINI OLISH TARTIBI

- 1.1. Bank yakka tartibdag tadbirkorning bank kartasini potentsial saqlovchiga shaxsan topshiradi, bunda bank xodimiga shaxsni tasdiqlovchi hujjat taqdim etilgandan so'ng amalga oshiriladi.
- 1.2. Xavfsizlik maqsadida yakka tartibdag tadbirkorning bank kartasi egasiga Bank qurilmalari (terminallar) orqali kartaning PIN-kodini o'zgartirish tavsiya etiladi. Ushbu PIN-kod karta egasini aniqlash hamda tovar, ish va xizmatlar uchun korxonalar bilan naqd pulsiz hisob-kitob qilishda karta bilan amalga oshirilgan operatsiyalarni tasdiqlash uchun qo'llaniladi.
- 1.3. Bankda yakka tartibdag tadbirkorning bank kartasini olganingizda, unda ko'rsatilgan familiyangiz va ismingizning to'g'riligini tekshirib chiqing. Agar ularning yozilishida xatoliklar aniqlansa, bu haqda bank xodimiga zudlik bilan xabar bering.

### 2. YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORNING BANK KARTASIDAN FOYDALANISH TARTIBI

- 2.1. PIN-kodni eslab qolish zarur, bank kartasiga PIN-kodni yozib qo'yish mumkin emas.
- 2.2. Hech qanday vaziyatda Bank kartasi yoki uning ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga, jumladan qarindoshlarga ham, foydalanish uchun bermaslik.
- 2.3. PIN-kod faqat kartaning qonuniy egasigagina ma'lum bo'lishi lozim. Pul mablag'larining xavfsizligini ta'minlash va kartadagi mablag'larga jinoyatchilarining kirishini oldini olish maqsadida, kodni begona shaxslarga berish man etiladi.
- 2.4. Bank kartasini yo'qotishga (shu jumladan yo'qotib qo'yish yoki o'g'irlatib qo'yishga) yo'l qo'ymaslik.
- 2.5. Bank kartasini saqlash va undan foydalanish shartlariga e'tibor bering. Bank kartasini mekanik, haroratl va elektromagnit ta'sirlardan asrang, shuningdek, unga namlik tegishidan saqlaning. Bank kartasini mobil telefon, maishiy va ofis texnikasi yonida saqlamang.
- 2.6. YTMMKHDan pul mablag'larini hisobdan chiqarishda quyidagilarni e'tiborga olish lozim:
  - YTMMKHD bo'yicha operatsiya valyutasi mos kelganda, operatsiya summasi aks ettiriladi.
  - Bank kartasi orqali operatsiyalarni amalga oshirish faqat YTMMKHDagi mavjud pul mablag'lari qoldig'i doirasida ruxsat etiladi.
- 2.7. Tovarlar/ishlar/xizmatlar uchun to'lov qilishda Bank kartasi egasi bank kartasining nusxasi (slip) yoki elektron terminal chekini imzolashi shart. Bunda u oldindan slipda (yoki chekda) va uning barcha nusxalarida Bank kartasi raqami, shuningdek, bank kartasidan foydalaniib amalga oshirilgan operatsiyaning sanasi, miqdori va valyutasi to'g'ri ko'rsatilganligiga ishonch hosil qilishi lozim. Bank kartasi egasi bank kartasidan foydalaniib amalga oshirilgan operatsiya miqdori ko'rsatilmagan slipni (yoki chekni) imzolashga haqli emas.
- 2.8. Bank kartasi bilan to'lov qilish paytida "muvaffaqiyatsiz" operatsiya sodir bo'lgan



taqdirda, bank hisobvarag'i bo'yicha ko'chirmada ushbu operatsiya yo'qligini keyinchalik tekshirish uchun terminal bergen chekni bir nusxada saqlab qo'yish lozim.

- 2.9. Bank bilan axborot almashish va o'zaro hamkorlik qilish uchun faqat bevosita Bankdan olingan hujjatlarda ko'rsatilgan aloqa vositalari (mobil va statsionar telefonlar, fakslar, veb-saytlar, oddiy va elektron pochta hamda boshqalar) rekvizitlaridan foydalanish lozim.
- 2.10. Bank kartasi egasi tomonidan karta uchinchi shaxsga foydalanish uchun berilgan yoki uning rekvizitlari uchinchi shaxsga ma'lum qilingan taqdirda, bank kartasi yoki uning rekvizitlaridan foydalanib amalga oshirilgan barcha operatsiyalar bo'yicha sarflangan summalar so'zsiz ravishda Mijozning SMKHSiga o'tkaziladi.
- 2.11. Tushunmovchilik yoki savollar yuzaga kelganda, Bank bilan + 998 71 200 88 99 (Call-center) raqamlari orqali bog'laning. Call-center xodimlari Sizdan quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan telefonogrammani qabul qilishga tayyor: Sizning joylashgan joyingiz, telefon raqamingiz, Karta raqamingiz va Kartochkadan foydalanishda yuzaga kelgan muammolar haqidagi ma'lumotlar. Shuningdek, ular Sizga bu masalalarni hal qilishda kecha-yu kunduz yordam berishga tayyor.

### **3. YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORNING BANK KARTASIDAN TOVARLAR VA XIZMATLAR UCHUN NAQD PULSIZ TO'LOVLARNI AMALGA OSHIRISHDA TAVSIYALAR**

- 3.1. Ishonchli bo'Imagan savdo va xizmat ko'rsatish tashkilotlarida yakka tartibdagi tadbirkorning bank kartasidan foydalanmaslik.
- 3.2. Bank kartasi bilan operatsiyalarni faqat sizning ishtirokingizda o'tkazishni talab qiling. Bu Kartada ko'rsatilgan shaxsiy ma'lumotlaringizning noqonuniy qo'liga kiritilishi xavfini kamaytirish uchun zarurdir.
- 3.3. Bank kartasi bilan to'lov qilishga urinish paytida "muvaqqiyatsiz" operatsiya yuz bergen taqdirda, bank hisobvarag'i ko'chirmasida mazkur operatsiya mavjud emasligini keyinchalik tekshirish uchun terminal bergen chekning bir nusxasini saqlab qo'yish lozim.

### **4. YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORNING BANK KARTASINI BLOKLASH**

- 4.1. Yakka tartibdagi tadbirkorning bank kartasidan foydalanishda PIN-kodni ketma-kebet ko'pi bilan ikki marta noto'g'ri kiritish mumkin. PIN-kodni uchinchi marta xato kiritishdan so'ng bank kartasi avtomatik ravishda bloklanadi. Bunday vaziyatda Sizga bank kartangizni blokdan chiqarish yoki qayta chiqarish uchun uni bergen bank bo'limiga murojaat qilishingiz zarur bo'ladi.
- 4.2. Bank kartasi egasi bank kartasining yo'qolganligi yoki undan ruxsatsiz foydalanilganligi faktini aniqlagan holda, bu haqda darhol Bankni xabardor qilishi shart (Call-markaz: + 998 71 200-88-99).
- 4.3. Kartaning yo'qolganligi yoki undan ruxsatsiz foydalanilganligi to'g'risida Bankka xabar berilmagan taqdirda, barcha xavf-xatarlar Karta egasining zimmasida bo'ladi.
- 4.4. Yakka tartibdagi tadbirkorning ilgari yo'qolgan yoki o'g'irlangan deb e'lon qilingan bank kartasi topilganda, bu haqda zudlik bilan Bankni xabardor qilish lozim. Bunday bank kartasidan foydalanish qat'ian man etiladi.

### **5. YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORNING BANK KARTASI AMAL QILISH MUDDATI VA UNI QAYTA ChIQARISH**

- 5.1. Bank Karta egasiga 5 kalendar yilga mo'ljallangan Kartani chiqaradi. Kartaning chiqarilgan sanasi va amal qilish muddati kartochkada ko'rsatilgan. Karta chiqarilgan kundan boshlab 5 yil o'tgach, Karta egasi yangi bank kartasini olish



uchun Bankka murojaat qilishi lozim. Bank kartasi uning old tomonida ko'rsatilgan oy va yilning oxirgi kunigacha, shu kunni ham o'z ichiga olgan holda, amal qiladi.

- 5.2. Bank kartasining amal qilish muddati tugagach, u yangi raqam va yangi amal qilish muddati bilan qayta chiqariladi, bunda YTMMKHR raqami o'zgarishsiz qoladi.
- 5.3. Esda tutingki, bank kartasi Bankning mulki hisoblanadi va u Karta egasiga faqat vaqtinchalik foydalanish uchun beriladi. Kartaning amal qilish muddati tugaganda yoki Sharhnomaga bekor qilinganda, u Bankka qaytarilishi shart.



## XALQARO KARTADAN FOYDALANISH QOIDALARI

### 1. UMUMIY SAVOLLAR

- Bank tomonidan chiqariladigan xalqaro bank kartalari (bundan keyin - Kartalar) jahon amaliyotida qabul qilingan naqd pulsiz hisob-kitob vositasi hisoblanadi va mijozga bank hisobvarag'idagi mablag'lardan sutkaning istalgan vaqtida, ushbu turdagи kartalarga xizmat ko'rsatuvchi qurilmalar mavjud bo'lgan har qanday joyda foydalinish imkoniyatini beradi.
- Karta To'lov tizimi bilan bog'liq bo'lgan do'konlar, restoranlar, transport va boshqa kompaniyalarda tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.
- Bank Mijozning arizasiga ko'ra, Kartalar bilan hisob-kitob qilish uchun hisobvaraq olib beradi.

### 2. KARTA VA UNING ELEMENTLARI

*Old tomoni*

- CHIP.** Ba'zi kartalarda o'rnatilgan chip mavjud. Ayrim do'konlarda chipli karta bilan xarid qilganda, operatsiyani tasdiqlash uchun PIN-kodni kiritish zarur bo'ladi.
- KARTA RAQAMI.** Kartangizning noyob identifikatori bo'lgan 16 ta raqamdan iborat to'plam.
- KARTA EGASI NOMI.** Siz karta egasi ekanligingizning kafolati. Karta bilan to'lov qilayotganingizda sizdan shaxsnini tasdiqlovchi hujjat so'rashlari mumkin.
- KARTA MUDDATI.** Amal qilish muddati oy/yil shaklida ko'rsatilgan (karta ko'rsatilgan oyning oxirgi kunigacha amal qiladi). Amal qilish muddati tugagandan so'ng, bank kartani yangi raqam bilan qayta chiqaradi.

*Teskari tomon:*

- MAGNIT LENTA.** Magnit lenta hisobingizga kirish kalitini shifrlangan shaklda saqlaydi.
- IMZO TASMASI.** Maxsus karta chizig'ida imzo qo'ying — bu sizning kartangiz uchun qo'shimcha xavfsizlikni ta'minlaydi.
- Himoya.** Himoya hologrammasi kartaning haqiqiyligini kafolatlaydi.
- CVC (CVV).** Imzo qo'yish joyining o'ng tomonida joylashgan uch xonali kod. Kod onlaysiz xaridlarni to'lash uchun talab qilinadi.
- BANK BILAN BOG'LANSISH.** Bankga murojaat qilishingiz mumkin bo'lgan manzil va telefon raqami.



### 3. KARTANI TO'LDIRISH

- MKHRga pul mablag'larini Mijozning hisobvarag'idan naqd pulsiz o'tkazish yo'li bilan AQSh dollarida kiritish mumkin.

### 4. KARTANI OLISH

- Bank Karta egasiga shaxsan qo'liga Kartani va faqat Karta egasiga ma'lum



bo'lgan maxfiy shaxsiy PIN-kodni o'z ichiga olgan PIN-konvertningi topshiradi. PIN-kod bankomatlar orqali naqd pul olishda, shuningdek, Kartadan foydalanishda va elektron hamda kassa terminallari tarmog'ida Karta egasini aniqlash uchun zarur. Karta egasi uni qabul qilishda PIN-konvertningi ishonchli tarzda muhrlanganligi va ilgari ochilmaganligiga ishonch hosil qilishi lozim. PIN-konvert ochilgandan so'ng, o'z PIN-kodini eslab qolish va uni sir saqlash kerak. PIN-kodni Kartaga yozish, uni Karta bilan birga yoki begonalar osonlikcha topa oladigan boshqa joyda saqlash tavsiya etilmaydi.

- 4.2.** Bankdan kartani olayotganingizda, unda ko'rsatilgan familiyangiz va ismingizning to'g'rilingini albatta tekshiring. Agar ularning yozilishida xatoliklar aniqlansa, bu haqda bank xodimiga xabar bering. Kartani olgandan so'ng darhol uning orqa tomonidagi maxsus ajratilgan joyga sharikli ruchka bilan o'z imzongizni qo'ying.

## 5. KARTADAN FOYDALANISH

- 5.1.** Kartadan, faqat kartada ismi va familiyasi belgilangan shaxs – Karta egasi foydalanishi mumkin.
- 5.2.** Kartaning egasi bo'limgan shaxs tomonidan undan foydalanish taqiqlanadi. Agar karta egasi uni uchinchi shaxsga foydalanish uchun bersa yoki karta egasi uning rekvizitlarini uchinchi shaxsga ma'lum qilsa, karta yoki uning rekvizitlaridan foydalanib amalga oshirilgan barcha operatsiyalar bo'yicha sarflangan mablag'lar so'zsiz ravishda Mijozning MKHRiga o'tkaziladi.
- 5.3.** PIN-kodni yodlab olish lozim. Agar bu qiyinchilik tug'dirsa, uni Kartadan alohida, noaniq shaklda va uchinchi shaxslar, jumladan qarindoshlar ham foydalana olmaydigan xavfsiz joyda saqlash kerak.
- 5.4.** Hech qachon, hech qanday sharoitda Kartani yoki uning rekvizitlarini uchinchi shaxslarga foydalanish uchun bermang.
- 5.5.** Bank kartasining yo'qolishiga (jumladan yo'qotish yoki o'g'irlangan holatlarga) yo'l qo'ymaslik.
- 5.6.** Kartani olganingizda, uning orqa tomonidagi karta egasi imzosi uchun ajratilgan joyga imzo qo'ying. Bu, karta yo'qolgan taqdirda, sizning rozililingiz bo'limgan holda undan foydalanish xavfini kamaytiradi.
- 5.7.** Kartani saqlash va undan foydalanish shartlariga e'tibor bering. Kartani mexanik, haroratli va elektromagnit ta'sirlarga duchor qilmang, shuningdek, unga namlik tushishidan saqlaning. Kartani mobil telefon, maishiy va ofis texnikalari yonida saqlamang.
- 5.8.** Interaktiv ovozli javob tizimi (IVR) yoki SMS xabarlar orqali so'rov kelganda, shaxsiy ma'lumotlaringiz yoki karta haqidagi ma'lumotlarni (raqami, amal qilish muddati, PIN-kodi, xavfsizlik kodi) hech kimga aytmang.
- 5.9.** Bank nomidan shaxsiy ma'lumotlarni taqdim etish so'ralgan elektron xatlarga javob berish tavsiya etilmaydi. Xatlarda ko'rsatilgan "havolalar"ga o'tmang, chunki ular soxta saytlarga olib borishi mumkin. Axborot almashish va Bank bilan muloqot qilish uchun faqat bevosita Bankdan olingan hujatlarda ko'rsatilgan aloqa vositalari ma'lumotlaridan (mobil va statsionar telefonlar, fakslar, veb-saytlar, oddiy va elektron pochta hamda boshqalar) foydalaning.
- 5.10.** MKHRdan pul mablag'larini hisobdan chiqarishda quyidagilarni e'tiborga olish lozim:
- Operatsiya valyutasi (Karta egasi tomonidan amalga oshirilgan operatsiya valyutasi) va MKHR valyutasi (AQSh dollari) bir xil bo'lganda, MKHR bo'yicha operatsiya summasi aks ettiriladi.
  - Karta egasi hisob-kitob valyutasidan boshqa valyutada operatsiyani amalga oshirganda, operatsiya summasi Xalqaro to'lov tizimi tomonidan Bank va Xalqaro to'lov tizimining kursi bo'yicha hisob-kitob valyutasiga qayta hisoblanadi va



- Xalqaro to'lov tizimi tomonidan Bankka taqdim etiladi.
- Buning natijasida yuzaga kelgan operatsiya summasidagi farq Karta egasi tomonidan e'tiroz predmeti bo'la olmaydi.
  - Kartadan foydalanib amalga oshiriladigan operatsiyalarga MKHRdagi mavjud pul mablag'lari qoldig'i doirasida ruxsat beriladi.
  - Tovarlar/ishlar/xizmatlar uchun to'lov qilishda yoki naqd pul mablag'larini berish punktlarida olishda, Karta egasi Karta izi tushirilgan hujjatni (slip) yoki elektron terminal chekini imzolashi shart. Bunda u avvalo slipda (yoki chekda) va uning barcha nusxalarida Karta raqami, shuningdek, Karta yordamida amalga oshirilgan operatsiyaning sanasi, summasi va valyutasi to'g'ri ko'rsatilganligiga ishonch hosil qilishi lozim. Karta egasi Karta yordamida amalga oshirilgan operatsiya summasi ko'rsatilmagan slipni (yoki chekni) imzolash huquqiga ega emas. Sotuvchi (kassir) Karta egasidan shaxsini tasdiqlovchi hujjatni talab qilishga va/yoki PIN-kodni kiritishni so'rashga haqli.
- 5.11.** Bank kartasi bilan to'lov qilish paytida "muvaqqiyatsiz" operatsiya sodir bo'lgan taqdirda, bank hisobvarag'i ko'chirmasida ushbu operatsiya mavjud emasligini keyinchalik tekshirish uchun terminal tomonidan berilgan chekning bir nusxasini saqlab qo'yish lozim.
- 5.12.** Nizoli masalalar yuzaga kelganda ularni hal qilishni osonlashtirish maqsadida, karta foydalanishiga oid barcha hujatlarni operatsiya o'tkazilgan kundan boshlab bir yil davomida saqlash tavsiya etiladi. Bu, operatsiyadan voz kechilgan taqdirda, e'tiroz bildirish jarayonini engillashtiradi va tezlashtiradi.
- 5.13.** Bank Karta yordamida amalga oshiriladigan operatsiyalarga cheklovlar o'rnatishi mumkin:
- 5.3.1. naqd pul mablag'larini olish operatsiyalarining jami summasi.
  - 5.3.2. naqd pulsiz to'lovlarning umumiyligi miqdori.
  - 5.3.3. naqd pul yechib olish amallarining soni.
  - 5.3.4. naqd pulsiz to'lov operatsiyalarining soni.
  - 5.3.5. Kartadan foydalangan holda boshqa operatsiyalarning eng ko'p miqdori yoki umumiyligi summasi.
  - 5.3.6. xizmat ko'rsatish hududlari.
- 5.14.** O'rnatilgan cheklovlar, agar ushbu turdagи kartalarga xizmat ko'rsatish shartlarida ruxsat etilgan bo'lsa, MKHR egasining yozma arizasi asosida o'zgartirilishi mumkin.
- 5.15. Tovarlar va xizmatlar uchun naqdsiz to'lovni amalga oshirishda Kartadan foydalanish bo'yicha tavsiyalar**
- Ishonchli bo'Imagan savdo va xizmat ko'rsatish tashkilotlarida kartalaringizdan foydalanmang.
  - Karta bilan operatsiyalarni faqat o'zingizning ishtiroyingizda amalga oshirishni talab eting. Bu Kartada ko'rsatilgan shaxsiy ma'lumotlaringizning noqonuniy qo'lga kiritilishi xavfini kamaytirish uchun zarurdir.
  - Karta orqali tovarlar va xizmatlar uchun to'lov amalga oshirilganda, cassir bank kartasi egasidan pasportni ko'rsatishni, chekni imzolashni yoki PIN-kodni kiritishni so'rashi mumkin. PIN-kodni kiritishdan oldin, atrofdagi odamlar uni ko'ra olmasligiga ishonch hosil qilish lozim. Chekni imzolashdan avval, unda ko'rsatilgan summani albatta tekshirib chiqing.
  - Karta bilan to'lov qilishga urinish paytida "muvaqqiyatsiz" operatsiya yuz bergan hollarda, bank hisobvarag'i ko'chirmasida ushbu operatsiya mavjud emasligini keyinchalik tekshirish uchun terminal bergan chekningdan bir nusxasini saqlab qo'yish lozim.

## 6. KARTANI BLOKLASH



- 6.1.** Kartadan foydalanishda PIN-kodni ketma-ket ko'pi bilan ikki marta noto'g'ri kiritish mumkin. PIN-kodni uchinchi marta xato kiritilganda, karta avtomatik ravishda bloklanadi. Bunday vaziyatda, Siz kartani bergen Bank bo'limiga murojaat qilib, kartani qayta chiqarish uchun ariza topshirishingiz zarur.
- 6.2.** Karta yo'qolgan yoki o'g'irlangan taqdirda, shuningdek, agar PIN-kod uchinchi shaxsga ma'lum bo'lsa, Mijoz kartani zudlik bilan bloklash uchun bu haqda bankka zudlik bilan xabar berishi kerak. Bunda shaxsni identifikatsiya qilish uchun xodimga kodli so'zni ma'lum qilish zarur. Tavsiflangan voqealardan keyin 3 kalenderb kun ichida Mijoz o'zining og'zaki arizasini MKHR yuritiladigan joyda yozma shaklda tasdiqlashi shart. Agar kelishilgan muddat ichida yozma shakldagi tasdiqnama Bankka taqdim etilmasa, Bank Kartani blokdan chiqarishga haqli.
- 6.3.** Karta yo'qolganligi to'g'risida Karta egasi tomonidan Bankka o'z vaqtida xabar berilmagan taqdirda, Kartadan noqonuniy foydalanganlik uchun barcha javobgarlik Karta egasining zimmasiga yuklatiladi.
- 6.4.** Agar ilgari yo'qolgan (o'g'irlangan) deb e'lon qilingan karta topilsa, darhol bankka xabar berish kerak, bunday kartadan foydalanish taqiqlanadi.

## 7. KARTANING AMAL QILISH MUDDATI VA QAYTA CHIQARILISHI

- 7.1.** Karta, ushbu turdag'i kartalar uchun tariflarda ko'rsatilgan muddatga taqdim etiladi va kartaning old qismida ko'rsatilgan oy va yilning oxirgi kunigacha amal qiladi.
- 7.2.** Muddati tugagandan so'ng, karta yangi raqam va yangi amal qilish muddati bilan qayta chiqariladi, MKHR raqami esa o'zgarmaydi.
- 7.3.** Esda tutingki, karta bankning mulki bo'lib, Karta egasiga vaqtincha foydalanish uchun beriladi va shartnoma muddati tugashi yoki bekor qilinishi bilan bankka qaytarilishi kerak.

## 8. SMS- XIZMATI

- 8.1.** SMS xizmatini faollashtirish uchun sizga bank kartasini bergen Bank bilan bog'lanishingiz kerak. SMS xizmati qisqa xabarlarni (SMS) yuborish va qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lgan uyali aloqa operatorlari abonentlari uchun mavjud.
- 8.2.** Sizni qiziqtirgan ma'lumotni olish uchun 1071 qisqa raqamiga SMS shaklida so'rov yuborishingiz kerak. So'rovlarda faqat lotin harflari bo'lishi mumkin. Harf o'ichami hisobga olimmaydi (HELP = Help = help). Mobil telefon raqamingizni o'zgartirganda, SMS xizmatini yangi raqamingizga o'tkazish uchun bank bilan bog'lanishingiz kerak.

## 9. XIZMATNI ULAGANINGIZDAN SO'NG, SIZ UChUN QUYIDAGI XUSUSIYATLAR MAVJUD BO'LADI

### 9.1. Amaliyotlar haqida bildirishnomalar.

Quyidagi voqealar sodir bo'lganda siz avtomatik ravishda xabarlarni olasiz:

- Kartadan to'lovni amalga oshirishda yoki naqd pul olishda.
- Operatsiya bekor qilingandan so'ng hisob raqamiga pul mablag'larini qaytarishda.
- Xaridni qaytarishda yoki hisob raqamga mablag'lar kiritishda.

### 9.2. SMS-xizmatidan foydalanish bo'yicha ma'lumotnoma.

Mavjud buyruqlar ro'yxatini olish uchun HELP matn bilan SMS yuboring. Alovida buyruq yordamida yordam olish uchun xabar yuboring HELP <buyruq nomi> (masalan, HELP BAL).

### 9.3. SMS- xizmati uchun xabar tilini tanlash

Tanlash uchun quyidagi tillar mavjud:

- O'zbek tilini tanlash uchun **LANG UZ** matnli SMS yuboring
- Rus tilini tanlash uchun **LANG RU** matn bilan SMS yuboring



- Ruscha (translit) - tilni tanlash uchun **LANG RUT** matn bilan SMS yuboring
- Ingliz tili-tilni tanlash uchun **LANG EN** matn bilan SMS yuboring

#### **9.4. Karta egasining kartalari ro'yxatini so'rash.**

Foydalanish uchun mavjud bo'lgan kartalar ro'yxatini olish uchun **CLIST** matni bilan SMS yuboring. SMS xizmati har bir karta uchun alohida ulangan. Kartaning seriya raqami qo'shimcha kartalarni so'rash uchun ishlatalishi kerak.

#### **9.5. Karta hisobvarag'idagi qoldiqni so'rash.**

Asosiy karta qoldig'ini olish uchun (hisobingizdagи mavjud mablag' miqdorini bilish uchun) **BALI** matnnini SMS-xabar orqali yuboring.

#### **9.6. Karta operatsiyalari to'g'risida ariza berish.**

Asosiy kartangiz bo'yicha (so'nggi amalga oshirilgan operatsiyalar ro'yxati) hisobot olish uchun, **MSTI** matnnini SMS-xabar orqali yuboring.

#### **9.7. Kartani vaqtincha blokirovka qilish.**

Asosiy kartani vaqtincha blokirovka qilish uchun (mijozning to'xtash ro'yxatiga kiritish) **USL** matnnini SMS-xabar orqali yuboring.

Buyruqni olgandan so'ng, karta bloklandi va uni to'lov va naqd pul olish uchun ishlatalish cheklanadi. Kartani to'xtash ro'yxatidan chiqarib tashlash va undan to'lov vositasi sifatida foydalanish uchun **USL 1 ACTIVATE** matnnini SMS-xabar orqali yuboring.

**Agar sizda SMS xizmatiga ulangan qo'shimcha kartalar bo'lsa, ular haqida ma'lumot olish uchun so'rovda kartaning tartib raqamini ko'rsating (masalan, **BALI 2 yoki MSTI 2**).**

**Agar sizda biron bir savol bo'lsa, sizga bank kartasi bergen bank bo'linmasiga yoki "Orient Finans" XATB aloqa markaziga (+998 71) 200-88-99 / 4004 raqamiga murojaat qilishingiz mumkin. Veb-saytda xizmat haqida yangiliklar va qo'shimcha ma'lumotlar [www.ofb.uz](http://www.ofb.uz).**

<b>Shayxontoxur BXM</b> Toshkent sh., Navoi ko'chasi, 33-uy +998(71) 244 54 41	<b>Yunusobod BXM</b> Toshkent sh., A.Temur ko'chasi, 95a-uy +998(71) 140 77 79	<b>Mirobod BXM</b> Toshkent sh., Yakub Kolas ko'chasi, 7A-uy +998(71) 140 70 00	<b>Chilonzor BXM</b> Toshkent sh., Chilonzor-3, 55/1 +998(71) 277 -42-08
<b>Markaziy amaliyot BXM</b> Toshkent sh., Kichik Besh Yogoqch, 50-uy +998(71) 205-00-66	<b>Bosh ofis qoshidagi Amaliyot boshqarmasi</b> Toshkent sh., Osiyo ko'chasi, 5-uy +998(71) 205 55 55		<b>Samarqand BXM</b> Samarkand sh., Mirzo Ulugbek ko'chasi, 48-uy +998(66) 230-80-00



**Ushbu ariza bilan tasdiqlaymanki**

"Orient Finans" XATBda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun maxsus karta hisobvarag'ini ochish va bank kartalariga xizmat ko'rsatish shartlariga qo'shilish shartnomasi bilan tanishib chiqdim.

Mazkur shartlarga to'liq roziman va ushbu arizani imzolash orqali ularga qo'shilaman.



imzo

**Men taqdim etgan ma'lumotlarning haqqoniyligini tasdiqlayman hamda ularni tekshirish va foydalanishga rozi ekanligimni bildiraman. Bank xizmat ko'rsatish shartlari va tariflari, shuningdek, kartadan foydalanish qoidalari bilan tanishib chiqdim va ularga riosa qilishni o'z zimmamga olaman.**

**Yakka tartibdagi tadbirkor nomi:**

F.I.Sh.

Imzo

**BANK BELGISI**

Ariza qabul qilingan sana:

"\_\_\_" 202\_\_\_ y.

**Mas'ul xodim:**

F.I.Sh.

Imzo

\_\_\_\_\_ **BXM**  
**Boshqaruvchisi**

F.I.Sh.

M.O'. Imzo

**BANK KARTASI BERILGANLIGI TO'G'RISIDAGI BELGI**

Ushbu bilan bank kartasini qabul qilganimni tasdiqlayman. Kartadagi shaxsiy ma'lumotlar to'g'ri ko'rsatilgan.



"\_\_\_" 202\_\_\_ y.

Foydalanuvchi imzosi



"Orient Finans" XATBda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun  
maxsus karta hisobvarag'ini ochish va bank kartalariga xizmat  
ko'rsatish shartlariga qo'shilish shartnomasiga  
3-sonli ilova.



\_\_\_\_\_ dan  
(Yakka tartibdagi tadbirkor F.I.Sh. ko'rsatiladi)

**"Orient Finans" XATBga**

### BANK KARTASINI BLOKLASH UChUN ARIZA

**Ilgari berilgan bank kartasini quyida keltirib o'tilgan sababga ko'ra STOP-ro'yxatga qo'yib to'xtatishingizni so'raymiz:**

kartaning yo'qolishi;

boshqa: \_\_\_\_\_

**YTT MKHR raqami:**

2	2	6	2	0															
---	---	---	---	---	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

**Karta raqami:**

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

**Biz tarif, "Orient Finans" XATB kartalaridan foydalanish qoidalari va kartalarni  
bloklash tartibi bilan tanishib chiqdik hamda ularni bajarish majburiyatini  
zimmagamizga olishimizni tasdiqlaymiz.**

**Yakka tartibdagi tadbirkor nomi:**



F.I.Sh.

Imzo

### BANK BELGISI

**Ariza qabul qilingan sana:**

" \_\_\_\_ " 202 \_\_\_\_ y.

**"Orient Finans" XATB \_\_\_\_\_ BXM**

**Arizani qabul**

**qilib oldi**

\_\_\_\_\_

F.I.Sh.

\_\_\_\_\_

Imzo

**Kelishildi**

\_\_\_\_\_

F.I.Sh.

\_\_\_\_\_

Imzo

**Karta bloklandi**

\_\_\_\_\_

F.I.Sh.

\_\_\_\_\_

Imzo



"Orient Finans" XATBda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun  
maxsus karta hisobvarag'ini ochish va bank kartalariga xizmat  
ko'rsatish shartlariga qo'shilish shartnomasiga  
4-sonli ilova.



(Yakka tartibdagi tadbirkor F.I.Sh. ko'rsatiladi)

dan

**"Orient Finans" XATBga**  
**BANK KARTASINI BLOKDAN ChIQARISH UChUN**  
**ARIZA**

**Ilgari bloklangan bank kartasini blokdan chiqarishingizni iltimos qilamiz:**

**YTT MKHR raqami:**

2	2	6	2	0													
---	---	---	---	---	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

**Karta raqami:**

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

**Blokdan chiqarish sababi:**

- Karta yo'qolgan yoki o'g'irlangan bo'lsa, u topilganidan so'ng kartani tiklash;
- Bloklash sababini bartaraf qilish (masalan, PIN-kodni noto'g'ri kiritish, so'rov bo'yicha vaqtinchalik bloklash va hokazo)
- boshqa: \_\_\_\_\_

**Ushbu bilan quyidagilarni tasdiqlaymiz:**

Yuqorida ko'rsatilgan bank kartasi bizning qo'llimizda.

Biz "Orient Finans" XATB kartalaridan foydalanan Tariflari va Qoidalari bilan tanishib chiqdik hamda ularni bajarishni o'z zimmamizga olamiz.

Ushbu karta blokdan chiqarilganidan so'ng amalga oshiriladigan barcha operatsiyalar uchun mas'uliyatni o'z zimmamizga olishimizni tasdiqlaymiz.

**Yakka tartibdagi tadbirkor nomi:**



F.I.Sh.

Imzo

**BANK BELGISI**

Ariza qabul qilingan sana:

"\_\_\_" \_\_\_ 202 \_\_\_ y.

"Orient Finans" XATB

BXM

**Arizani qabul qilib**

**oldi**

F.I.Sh.

Imzo

**Kelishildi**

F.I.Sh.

Imzo

**Karta blokdan**

**chiqarildi**

F.I.Sh.

Imzo